

6. Uzbekistan Government. (2025). *Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili davlat dasturi*. Tashkent.

7. *Uzdaily*. (2024). *Uzbekistan plans to expand green energy to 30% of power generation in 2026*.

8. *Kursiv Media*. (2025). *Uzbekistan develops national green finance programme*.

## **O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA ESG STANDARTLARI ASOSIDA NARX SHAKLLANISHI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Hasanova Sadoqat Bahodir qizi***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida to‘qimachilik sanoatida ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, to‘qimachilik korxonalarida xarajatlarni boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda narx shakllanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ESG tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda global bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ESG standartlari, to‘qimachilik sanoati, narx shakllanishi, xarajatlarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, eksport salohiyati.*

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy mas‘uliyat bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli so‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiy amaliyotda ESG (Environmental, Social, Governance) standartlari korporativ boshqaruvning muhim elementi sifatida keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham sanoatni barqaror rivojlantirish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va ijtimoiy mas‘uliyatni kuchaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sanoatni modernizatsiya qilish, eksport hajmini oshirish hamda ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. [1]

Mazkur jarayonda to‘qimachilik sanoati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu soha mamlakat eksportining muhim qismini tashkil etadi hamda ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarish jarayonlarida katta hajmdagi xom ashyo, suv va energiya resurslaridan foydalanadi. Bu esa ESG standartlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.[2]

ESG standartlarining to‘qimachilik sanoatidagi ahamiyati. ESG tamoyillari korxonalarining barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan uchta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillari.

Environmental (Ekologik omillar). Ekologik komponent ishlab chiqarish jarayonining atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, to‘qimachilik sanoatida energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda chiqindilarni qayta ishlash orqali namoyon bo‘ladi. Xalqaro bozorlarda OEKO-TEX va GOTS kabi ekologik sertifikatlash tizimlari tobora muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu talablar dastlab xarajatlarni oshirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda mahsulotning eksport qiymatini oshiradi [3].

Social (Ijtimoiy omillar). Ijtimoiy komponent korxonalarining xodimlar va jamiyat oldidagi mas'uliyatini aks ettiradi. Bu xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat huquqlarini himoya qilish hamda xodimlar malakasini oshirish orqali namoyon bo'ladi. Ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish korxonalarining brend qiymatini oshirib, investorlar va hamkorlar uchun jozibadorligini ta'minlaydi [4].

Governance (Korporativ boshqaruv). Korporativ boshqaruv korxonalarining faoliyatining shaffofligi va samarali boshqaruv tizimini ta'minlashga qaratilgan. Bunga moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, risklarni boshqarish hamda strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish kiradi. Samarali boshqaruv investorlar ishonchini oshirib, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [4][5].

ESG standartlarining narx shakllanishiga ta'siri. To'qimachilik korxonalarida narx shakllanishi ishlab chiqarish xarajatlari, xom ashyo narxi, bozor talabi va raqobat darajasiga bog'liq. ESG standartlarini joriy etish ushbu jarayonga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ekologik texnologiyalarni joriy etish dastlab xarajatlarni oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda energiya va resurslardan samarali foydalanish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, korxonalar xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

ESG standartlari asosida narx shakllanishi metodologiyasi. To'qimachilik korxonalarida narx shakllanishi metodologiyasini takomillashtirish ESG tamoyillariga asoslangan kompleks yondashuvni qo'llashni talab etadi. Mazkur metodologiya ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda korxonalar faoliyatining ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu metodologik yondashuv narx shakllanish jarayonini an'anaviy xarajatlar asosidagi modeldan kengroq ko'lamdagi strategik boshqaruv modeliga o'tkazishni nazarda tutadi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlari bilan bir qatorda ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari ham narx siyosatini shakllantirishda muhim omil sifatida hisobga olinadi. [6]

*ESG tamoyillariga asoslangan narx shakllanish metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:*

Xarajatlarni tizimli tahlil qilish bosqichi – ishlab chiqarish jarayonidagi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda xarajatlar tarkibida ESG omillarining ulushini aniqlash.

ESG omillarini integratsiya qilish bosqichi – ekologik texnologiyalarni joriy etish, energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish, xodimlar mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Narx shakllanishini optimallashtirish bosqichi – ishlab chiqarish xarajatlari, bozor talabi, raqobat muhiti hamda ESG ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda korxonalar uchun optimal narx strategiyasini ishlab chiqish.

Strategik monitoring bosqichi – ESG indikatorlari asosida narx siyosati samaradorligini baholash, bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarni tahlil qilish hamda narx shakllanish mexanizmini doimiy ravishda takomillashtirib borish.

Mazkur metodologiya to'qimachilik korxonalarida narx siyosatini shakllantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda mahsulotlarning xalqaro bozordagi

raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Quyidagi 1-jadvalda ESG omillarining to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'siri keltirilgan.

**1-jadval**

**ESG omillarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri<sup>75</sup>**

ESG komponenti	Chora-tadbirlar	Natija
Environmental	Energiya tejamkor texnologiyalar	Xarajatlar kamayadi
	Suvni tejash texnologiyalari	Resurslar samarali ishlatiladi
Social	Xodimlar malakasini oshirish	Mehnat unumdorligi oshadi
	Mehnat sharoitlarini yaxshilash	Kadrlar barqarorligi oshadi
Governance	Shaffof boshqaruv	Investorlar ishonchi ortadi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ESG tamoyillarini joriy etish korxonalarining ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash bilan birga ularning iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi. Energiya tejamkor texnologiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, xodimlar malakasini oshirish esa mehnat unumdorligini oshiradi. Korporativ boshqaruvning shaffofligi esa investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, ESG standartlariga mos ishlab chiqarilgan mahsulotlar xalqaro bozorlarda yuqori talabga ega bo'lib, bu esa eksport narxlarining oshishiga va korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.[6]

O'zbekiston to'qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirishda ESG standartlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillar ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali korxonalar faoliyatining samaradorligini oshiradi. [7]

Shu sababli kelgusida to'qimachilik korxonalarida ESG standartlariga asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik toza ishlab chiqarishni kengaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Eccles R., Ioannou I., Serafeim G. *The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // Management Science.* – 2014.
3. Porter M.E., Kramer M.R. *Creating Shared Value // Harvard Business Review.* – 2011.
4. Khasanov B.A., Nurmanov K.T., Atamurodov S.Y. *Opportunities for implementing international methods of cost calculation of rice production for strategic management purposes // Academic Journal Research.* – Tashkent: Academic Research Publishing, 2025. – Vol. 3, No. 2. – pp. 28–38.
5. Khasanov B.A., Yarkulova M.A. *Влияние эффективных методов учета затрат и калькуляции себестоимости на финансовую и статистическую отчетность. // Бизнес Эксперт: iqtisodiy tahlil va boshqaruv jurnali.* – Toshkent: "Biznes-Daily Media", 2020. – №3. – B.146–149.
6. Hasanova S.B. *Methods for improving cost management strategy in the textile industry // International Journal of Education, Social Science & Humanities.* – Helsinki: Finland Academic Research Science Publishers, 2024.

<sup>75</sup> Muallif ishlanmasi

## **AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INNOVATSION FAOLIYATINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIALASHTIRISH**

**Baratova Zumrat Xalmetjanovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslubiyotini rivojlantirishning joriy bosqichlarida moliyaviy-investitsion strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga samarali tadbiiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining istiqbolda moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlanishi mukammal ishlab chiqilgan strategiyalarga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. Shu bilan birga sohani yanada rivojlantirishda institutsional-tashkiliy asoslar ham alohida ahamiyatga ega bo'lib keyingi yillarda bu borada ham qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Qayd etib o'tish kerakki, jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati so'nggi yillarda ortib bormoqda. Global moliya bozorlarida investorlar nafaqat kompaniyalarning moliyaviy natijalariga, balki ularning atrof-muhitga ta'siri, ijtimoiy mas'uliyati va boshqaruv tizimi samaradorligiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Shu sababli korporativ boshqaruvda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari muhim strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiyotning muhim institutsional subyektlari bo'lib, ular innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish esa yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Biroq innovatsion loyihalarni amalga oshirish ko'pincha katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda ESG tamoyillarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. ESG asosida moliyalashtirish kompaniyalarga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, risklarni kamaytirish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda dunyo tajribasida aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda ESG tamoyillari keng qo'llanilmoqda. Xususan, aksariyat yirik korporatsiyalar yashil texnologiyalar, energiya samaradorligi va raqamli transformatsiya sohalariga investitsiyalar hajmini bosqichma-bosqich oshirmoqda (1-jadval).

ESG asosidagi moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri yashil moliya instrumentlari hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar, barqaror rivojlanish obligatsiyalari va ESG fondlari orqali innovatsion loyihalar uchun mablag'lar jalb qilinmoqda. Mazkur instrumentlar investorlar uchun ham jozibador bo'lib, ular barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Energetika, sanoat, telekommunikatsiya va transport sohalaridagi